



### USMON NOSIR SIYMOSINING DRAMATURGIK TALQINI (TO‘RA MIRZO VA JAVLON JOVLIEV ASARLARI MISOLIDA)

G‘ulom Atadjanov,

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20603904>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada To‘ra Mirzoning “Usmon shoir – osmon shoir” va Javlon Jovlievning “Usmon Nosir” musiqali dramalarida Usmon Nosir hayoti va fojiaiy taqdirining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarlarda shoirning bolaligi, ijodi va qatag‘on davri voqealari xronologik hamda erkin syujet asosida yoritilgan. Tadqiqotda T. Mirzo va J. Jovliev asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi, shuningdek, Usmon Nosir obrazining turlicha talqinlari qiyosiy o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Usmon Nosir, To‘ra Mirzo, Javlon Jovliev, Iqbol Mirzo, tarixiy drama, musiqali drama, obraz talqini, qatag‘on davri, xronologik syujet, badiiy to‘qima, tarixiy haqiqat, intertekstual tahlil, tragediya, she‘riyat.

**Аннотация.** В данной статье анализируется художественная интерпретация жизни и трагической судьбы Усмона Насира в музыкальных драмах Тора Мирзо «Усмон-поэт – поэт неба» и Жавлона Жовлиева «Усмон Насир». Произведения охватывают события детства поэта, его творчества и периода репрессий на основе хронологического и свободного сюжета. В исследовании сравнительно изучается гармония исторической правды и художественной фактуры в произведениях Т. Мирзо и Ж. Жовлиева, а также различные интерпретации образа Усмона Насира.

**Ключевые слова:** Усман Насир, Тора Мирзо, Джавлон Джовлиев, Икбол Мирзо, историческая драма, музыкальная драма, интерпретация персонажей, период репрессий, хронологический сюжет, художественная фактура, историческая правда, интертекстуальный анализ, трагедия, поэзия.

**Annotation.** This article analyzes the artistic interpretation of the life and tragic fate of Usmon Nasir in the musical dramas of Tora Mirzo “Usmon the poet – the poet of the sky” and Javlon Jovliev “Usmon Nasir”. The works cover the events of the poet’s childhood, creativity and the period of repression on the basis of a chronological and free plot. The study comparatively studies the harmony of historical truth and artistic texture in the works of T. Mirzo and J. Jovliev, as well as different interpretations of the image of Usmon Nasir.

**Keywords:** Usman Nasir, Tora Mirzo, Javlon Jovliev, Iqbol Mirzo, historical drama, musical drama, character interpretation, period of repression, chronological plot, artistic texture, historical truth, intertextual analysis, tragedy, poetry.

**Kirish.** O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar hayoti va fojiaiy taqdirini badiiy talqin qilish dramaturgiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, XX asr o‘zbek she‘riyatining yirik vakili Usmon Nosir siymosi zamonaviy dramaturglar ijodida turli estetik yondashuvlar asosida qayta yaratilmoqda. Uning qisqa, ammo serqatlam hayoti va qatag‘on davri bilan bog‘liq fojiaiy qismati sahna asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligida ifodalanadi. Usmon Nosir obrazini dramaturgik talqin qilish uning biografiyasini qayta hikoya etish bilan birga, ruhiy olami va davr bilan murakkab



munosabatlarini badiiy yoritishga xizmat qiladi. Shu jihatdan To‘ra Mirzo va Javlon Jovliev musiqali dramalari ushbu mavzuni ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar Usmon Nosir hayoti, ijodi va uning dramaturgik talqinini o‘rganishda muhim ilmiy hamda badiiy manbalar hisoblanadi. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar shoir ijodini bevosita o‘rganishga imkon bersa, Usmon Nosir zamondoshlar xotirasida uning shaxsiyati haqida tarixiy xotiralarni boyitadi. To‘ra Mirzoning Usmon shoir – osmon shoir va Javlon Jovlievning Usmon Nosir asarlari Usmon Nosir obrazining sahnaviy talqinini turli estetik yondashuvlarda ifodalaydi. D. Quronovning Adabiyot nazariyasi asoslari asari esa tahlil uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda Usmon Nosir siymosining dramaturgik talqini To‘ra Mirzo va Javlon Jovliev asarlari misolida qiyosiy va tahliliy metodlar asosida o‘rganildi. Tavsifiy metod yordamida dramalardagi syujet, obrazlar tizimi va badiiy vositalar yoritildi. Qiyosiy metod orqali har ikki dramaturg asarlarida Usmon Nosir obrazining talqini va tarixiy haqiqat bilan badiiy to‘qima munosabati solishtirildi. Tahliliy yondashuv esa ramziy ifodalar va dramatik unsurlarni ochib berishga xizmat qildi.

**Tahlillar va natijalar.** To‘ra Mirzo Usmon Nosir hayoti va fojiaiy taqdirini aks ettirishda xronologik syujet ko‘rinishidan unumli foydalangan. Iqbol Mirzo biroz murakkab, ammo tushunarli sahna ko‘rinishlarida buyuk iste’dod sohibi Usmon Nosirni qatl etgan jamiyat, bu jamiyatdagi hasadgo‘y kishilarning asl basharasini fosh etgan. To‘ra Mirzo ham “Usmon shoir – osmon shoir” tarixiy musiqali dramasida Usmon Nosirning onasi Xolambibining Namangandan Qo‘qonga uzatilish marosimi bilan boshlagan. Muallif Usmon Nosir hayoti va ijodiga oid voqealarni xronologik tartibda berish bilan syujetning bir muncha soddaroq ko‘rinishidan foydalanadi. Ammo har uch dramaturg Usmon Nosir adabiy shaxsiyati va qatag‘on yillarining dahshatini, shuningdek, ichi qora, hasadgo‘y kishilarning kirdikorlarini mahorat bilan badiiy ifodalagan. Uch dramaturg I.Mirzo, T.Mirzo, J.Jovliev tarixiy dramatik asarlar matnida Usmon Nosirning isyonkor va fusunkor she’riyati hamda tarjimalaridan (“Boqchasaroy fontani”, “Demon”) unumli foydalangan.

T.Mirzo va J.Jovlievlar ham olimning ilmiy tadqiqotlarida aks ettirilgan biografik, adabiy va tarixiy faktlarga suyanan. Bilamizki, Usmon Nosir hayoti afsonaviylashib ketib, shoir haqidagi mish-mishlar salkam hayotiy haqiqatga aylanib ketgan. Shu ma’noda har uch dramaturg afsonalarga aylangan Usmon Nosir adabiy shaxsiyatini to‘la qonli ochib berish maqsadida og‘izdan og‘izga ko‘chib yurgan og‘zaki ma’lumotlardan ham unumli foydalangan. To‘ra Mirzo va Javlon Jovliev nisbatan kamroq obrazlar yaratgan. Masalan, To‘ra Mirzoning “Usmon shoir-osmon shoir” tarixiy musiqali dramasida ikkita tarixiy shaxs obrazi va beshta to‘qima obraz yaratilgan. Javlon Jovlievda esa Usmon Nosir



obrazigina tarixiy shaxs sanalsa, Qo‘chqor Samad (adabiyoshunos), Shokir Abdi (shoir), To‘xta shoir (havasmand ijodkor), Sodiq Po‘lat (rasmiy), Ona (shoirning onasi), Qiz (sevgilisi), Luiza, Sasha (rus zobiti), Vanya (rus zobiti), Doktor, Barmen kabi badiiy to‘qima obrazlardir. Javlon Jovliev tarixiy davr fojiasini aks ettirishda umumlashtirish yo‘lidan boradi. Muallif Usmon Nosirning onasi Xolambibining ismi sharifi ma‘lum bo‘lsada, dramada Ona umumlashma obrazini yaratadi. Bizningcha, yaqin o‘tmishdagi aniq tarixiy shaxslar obrazini yaratishda umumlashma va jamlama obraz yaratish o‘zini oqlamagan. Shunga qaramasdan, yosh dramaturg “Usmon Nosir” tarixiy musiqali dramasi o‘ziga xos badiiy ijodiy uslubini yarata olgan. Bu muallifning shaxs va davr fojialarini berishda kinoyaviy badiiy uslubni shakllantirganligida namoyon bo‘lgan.

T.Mirzoning “Usmon shoir-osmon shoir” drama syujetida shoir Usmon Nosirning bolaligi, o‘smirligi, taniqli shoir bo‘lib ko‘zga ko‘rinishi va so‘nggi kunlarini badiiy talqin qilgan. Usmon Nosir (bolaligi, o‘smirligi, taniqli shoirligi, so‘nggi kunlari), Xolambibi (shoirning onasi), Muallif, Lyudmila (Kemerovo hibsonasi kutubxonachisi), Qamoqxon nazoratchisi, rais, 1-yigit, keyinchalik 1-yozuvchi, 2-yigit, keyinchalik 2-yozuvchi, 3-yigit, keyinchalik 3-yozuvchi. Dramada shoirning otasi Nosir Hoji ishtirok qilsa ham, nimagadir ishtirok etuvchilar ro‘yhatiga kiritilmagan. Dramada shoirning Toshkentdagi hovlisi ham tilga olinadi. Biroq u yashagan muhit, baxillik, ko‘rolmaydigan do‘stlar, Stalinni kimgadir o‘xshatish va boshqalar barcha shoir ijodiga bag‘ishlangan dramalarda mavjud.

Har uch dramaturg Usmon Nosirning sarkashligi, rus shoiri Yeseninga taqlidan ko‘chabazoriligi, xotin-qizlarga o‘chligi, ichkilikka berilishi kabi nuqsonlarga ham diqqat qaratgan. Tarixiy hujjatlarga ko‘ra, Usmon Nosir “Xalq dushmani” aybidan tashqari, “axloqsizlik”da ayblangan. I.Mirzo va T.Mirzo Usmon Nosirni axloqsiz va yengiltabiat obraz sifatida emas, shoir, ijodkor shaxsiga xos “jununvash”, “sarkash”, “tanti va jo‘mard” obraz sifatida baholaydi. Misollarga murojaat qilamiz. T.Mirzodan parcha:

**1-yigit.** Usmon, Moskovda ham birovlarining silliq qiz-juvonlarining ortidan ergashib ko‘z olaytib, majruh bo‘lib, sovuq yurtlarda qolib ketmagin tag‘in.

**2-yigit.** (Usmonning yurishiga taqlid qilib.) Birorta go‘zal ko‘rinib qolsa, go‘yo uni ko‘rmayotgandek g‘o‘dayib o‘tib ketib, keyin nigoh solamiz. Usmon g‘irt xotinvoz!

**3-yigit.** Usmon xotinvoz emas, aksar qizlar usmonvoz!”. [1.103]

T.Mirzoning “Usmon shoir-osmon shoir” tarixiy musiqali dramasi ham xuddi shu yo‘sinda tugallangan. Tarixiy dramaning eng so‘nggi o‘n birinchi ko‘rinishida 1957-yil, sentabr oyida Xolambibi o‘g‘lining oqlanganligi haqidagi maktubni oladi. Bu sahna ko‘rinishida o‘g‘lini sog‘inib, ayriliq azobida qattiq dard chekkan onaning ta‘sirchan marsiya she‘ri kitobxonga kuchli ta‘sir qiladi. Marsiya shunday boshlanadi:

**Xolambibi:**

Qani, Usmonim, qani?



Jonu jahonim qani?  
Qayga ketib qoldi Er  
Xasta osmonim qani?  
Uchib kelar Shimoldan qushlar,  
O'ngimaydi men ko'rgan tushlar,  
Tobutini qushlar ko'targay,  
Na bir uchun o'g'lonim ushlar.  
Qushday uchdi bor yillarim,  
Yulindi mening gullarim.  
Yulindi erkim, yo'llarim  
Yulindi, erkim, tillarim.  
Zorlab qoldi onaizor  
Ortib ketdi boshda oq qor,  
Tongga boqsa, mushtiparkim,  
Sabohda oh, qora ohor:[1.118]

Mushtipar ona o'g'lining na tirigini, na o'ligini ko'rgan. U yot mozorlarda qolib ketgan o'g'li uchun dod faryod qiladi. Onaning chuqur dardi, g'ami dramada aks etgan marsiya she'rda mahorat bilan ifodalangan. Bizningcha, T.Mirzo ham shoir, ham dramaturg sifatida "Usmon shoir-osmon shoir" tarixiy musiqali dramasida shu paytgacha to'plagan adabiy ijodiy tajribalarini katta mahorat bilan namoyon etgan. Dramada aks etgan O'lanchi ayol, 1-ayol, 2-ayol, 3-ayol, Xolambibi, Keksa shoir, Lyudmila tilidan aytilgan she'rlar muallif To'ra Mirzo tomonidan yozilgan, mazkur tarixiy musiqali dramadagi she'riy parchalar, shuningdek, Usmon Nosir ijodidan olingan she'rlar dramaning musiqiylik va liro-romantik, tragik pafosini ta'minlab bergan. Xususan, Xolambibi tilidan aytilgan marsiya she'rda ona qabri ham topilmagan o'g'lining mozorini quchoqlab xayolan alla aytadi:

"Xolambibi:  
Beshigidan judo bo'lgan o'g'lim- ey,  
Qaysi yot mozorga qo'yildi taning?  
Kun yorishar, yorishmas hech ko'nghim-ey,  
Murdangga ham joy bermadi Vataning.  
Topolsaydim men mozoringni,  
Qabring quchib alla aytardim.  
Tuproqqa ko'milgan zoringni  
O'z yurtingga olib qaytardim.  
Usmon osmon shoiri,  
Falak kezar shay she'ri.



Turkiston kishanida.  
Bay qimorga boy eri.  
Yot tuproqda yolg'iz yotibsan, alla,  
Erka eding, erta qaytibsan, alla.  
Alla aytib uxlataman tun-kunni,  
Ko'k shoiri tuproq botibsan, alla"[1.118]

I.Mirzoning tarixiy fojiasida Tergovchi yordamchisi obrazi katarsis holatini boshidan kechirgan obraz sifatida yaratilgan bo'lsa, T.Mirzoning tarixiy musiqali dramasida 3-yozuvchi xuddi shuningdek, katarsis hodisasini boshdan kechiradi. T.Mirzo dramasida yaratilgan ismi- sharifi berilmagan uch yozuchi Usmon Nosirning tug'ma iste'dodini ko'ra olmaydi. Ular drama sahna ko'rinishlarida Usmon Nosirni kuzatib, u haqida bo'hton ma'lumotlarni to'plab, yozib olishadi:

**“1-yozuvchi:** (2-yozuvchiga) Hamma gapni yozib oldingmi?

**2-yozuvchi:** Hatto hurragini ham yozyapman.

**1-yozuvchi:** Endi uni o'chir. Bemalol gaplashaylik. Usmonni qizlarning eng silliqalari yaxshi ko'rganiga g'ashim kelardi. Endi mamlakatning birinchi gazetini maqtaganidan ham zada bo'ldim. Qarang-a, Usmonning orqasidan omad izma-iz ergashib yuradi-ya. Ko'pchilik jononlar uning she'rlarini eshitgandayoq yodlab olishardi. Endi kuning bitdi, buyuk shoir! Otamizni etikdo'zga tenglashtirdi-ya.

**2-yozuvchi:** Usmon Nosir... Samarqandda o'qiyotganida ham birinchi raqamli yulduz edi. Barcha qizlarning og'zidan sira Usmon Nosirning nomi tushmasdi. Endi Usmon “borsa-kelmas”ga ketadi. Endi Usmon Nosirning dumlari kimni maqtarkan? Yo birorta suyanchiq topib, jon saqlasharmikin?

**3-yozuvchi:** Usmon Nosirning mahmadonaligi o'zi menga unchalik yoqmasdi. O'zi yomon bo'lsayam (ohista gapiradi) u haqiqiy tug'ma shoir-da".[1.108] Drama yakunida 3-yozuvchi Usmon Nosirning onasi Xolambibi oldiga borib, undan kechirim so'raydi. Drama badiiy yechimida 3-yozuvchi Keksa shoir nomi bilan atalgan. Keksa shoir Usmon Nosirning do'sti bo'lib, ikki hasadgo'y yozuvchiga qo'shilib, Usmon Nosirga qarshi ko'rsatma beradi. Ammo, o'sha paytdayoq do'stining iste'dodini tan olib, qilayotgan qora ishlari uchun vijdon azobida qovriladi. Usmon Nosir qoralangan majlisdan so'ng, yozuvchilar uyushmasiga qaytib bormaydi. Usmon Nosirning oqlanganidan xabardor bo'lib, shoirning onasi Xolambibidan uzr so'raydi. T.Mirzoning “Usmon shoir-osmon shoir” tarixiy musiqali dramasi Xolambibining achchiq ko'z yoshlar to'kib, yig'lab aytgan ariyasi bilan yakunlanadi. Bu ariya g'am-qayg'uda ado bo'lgan onaning marsiya ohangida yozilgan yor-yor bilan tugallanadi:

“Usmonvachcha qoldirmading, yo'q mozorga aytay yor-yor  
Qor ostida qolib ketgan buyuk orga aytay yor-yor,



Muncha tordir Namongonim, halqumimda titrar jonim,

Ko'nglim sindi, men ham endi go'rdan go'rga qaytay, yor-yor"[1.108]

N.Rashidovaning dramasi undan keyin yaratilgan dramalar uchun asos bo'ldi. Iste'dodli yosh shoir va dramaturg Javlon Jovlievning musiqali dramasi ham bundan mustasno emas. Mazkur musiqali drama syujet jihatidan N. Rashidovaning yozgan dramasi ancha yaqin. Syujetni shakllantirishda Toshkentdagi va surgundagi voqealar asos qilib olinadi. Musiqali dramada qatnashuvchi obrazlar ko'p emas. Usmon Nosir, Qo'chqor Samad (adabiyoshunos), Shokir Abdi (shoir), To'xta shoir (havasmand ijodkor), Sodiq Po'lat (rasmiy), Ona (shoirning onasi), Qiz (sevgilisi), Luiza, Sasha (rus zobiti), Vanya (rus zobiti), Doktor, Barmen. Musiqali drama besh sahnadan iborat. Dramadagi shoir va uning onasidan tashqari barcha obrazlar to'qima obraz mahsuli hisoblanadi. Shu to'qima obrazlar orqali davr ruhi asta-sekin ochiladi. Dramada shoirning xotiralari, xayollari va dardlari har qanday kitobxonni, tomoshabinni hayajonga soladi, o'ylantiradi, yig'latadi ham. Drama Usmon Nosirning ichki dardi bilan boshlanadi. Dramada ikki narsaga ko'p urg'u beriladi. Birinchisi, jamiyatda kechayotgan dahshatli qatag'onga urg'u berilsa, ikkinchisi, shoirning yengil tabiat inson ekanligiga diqqat qaratiladi. Bizningcha, dramaturg J.Jovliev Usmon Nosir obrazi va qatag'on davri fojialarini aks ettirishda noto'g'ri yondoshgan. Ijodkor millatimizning katta iste'dodli shoiri Usmon Nosirning hayoti va fojiviy qismatini bugungi zamondoshlarimizga yetkazishda yanglish estetik mezonda turib baholagan. Ya'ni dramada Usmon Nosirning yengiltabiatliligiga emas, balki uning iste'dodiga, shunday yetuk shoirning tuhmat tufayli qatag'on qurboni bo'lganiga diqqat qaratishi lozim edi. Bu jihatdan N.Rashidovaning Usmon Nosir haqidagi tarixiy dramasi muvaffaqiyatli chiqqan. Qolaversa, bu ikki dramaturg tarixiy faktlarga yondashuvda ikki xil yo'ldan ketgan. N.Rashidova Usmon Nosirning biografiyasi, oilasi, ijodi, surgundagi yillari va vafotini yoritishda aniq tarixiy va hayotiy faktlarga asoslangan. J.Jovliev esa shoir biografiyasi, otasi, onasi, singillari ya'ni oilasi haqidagi barcha ma'lumotlar aniq bo'lsada, badiiy to'qimaga kuch beradi. Ammo, nazarimizda, yaqin o'tmishdagi adabiy shaxs, jo'shqin shoir Usmon Nosir hayoti va fojiasini to'laqonli ochib bera olmagan.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqotda To'ra Mirzo va Javlon Jovlievning musiqali dramalarida Usmon Nosir obrazining badiiy talqini qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Har ikki muallif shoir hayoti va fojiviy qismatini sahnaviy ifodalashda tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligidan foydalangan. To'ra Mirzo dramatik voqealarni xronologik asosda yoritib, Usmon Nosir obrazini lirizm va tragizm orqali ochib bergan bo'lsa, Javlon Jovliev erkin syujet va to'qima obrazlar orqali davr ruhini umumlantirib ko'rsatishga harakat qilgan. Biroq unda ayrim badiiy urg'ular shoirning ijodiy siymosini to'liq ochishga yetarli bo'lmagan. Umuman olganda, har ikki asar Usmon Nosir shaxsiyati va uning qatag'on



davridagi fojiviy taqdirini turlicha estetik yondashuvlarda ifodalab, o'zbek dramaturgiyasida tarixiy shaxs obrazini yaratish tajribasini boyitgan.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзо Т. Усмон шоир – осмон шоир // Шарқ юлдузи. № 08. 2022. – Б.103-108-118
2. N.Rashidova. Usmon Nosir. –Toshkent: Zabarjad Media , 2022-Б. 224 b.
3. J.Eshonqul. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. –Toshkent: Fan nashriyoti, 2011 -Б. 304 b.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslar. –Toshkent: Akademnashr, 2018 480 b.

